

UCH AVLOD VAKILLARINI BIRLASHTIRGAN TADBIR



UCH AVLOD VAKILLARINI BIRLASHTIRGAN TADBIR

Bugun 3-may kuni Termiz shahar 4-umumta'lim mакtabida "Uch avlod uchrashuvi" tadbiri bo'lib o'tdi. Tadbirda shahar Nuroniyalar jamg'armasi Termiz shahar bo'limi raisi T.Berdiyev, mahalladagi faol nuroniyalar, jamoatchilik kengashi va "Keksalar maslahati" guruhi a'zolari, hamda o'quvchi yoshlар qatnashdi.

El-yurt ravnaqi yo'lida kamarbasta bo'lish lozimligi uch avlodga mansub yurtdoshlarimiz o'rtasida kechgan samimiy suhbatlar bosh mavzusiga aylandi. Yoshi ulug' otaxon va onaxonlarimiz hayoti va mehnat faoliyati davomida to'plagan boy tajribasi, yoshlik davridagi o'ziga xos qiyinchiliklar, mehnat pallasidagi mashaqqatlar, nihoyat nuroniylik paytida ko'rsatilayotgan hurmat-ehtirom haqida o'z dil so'zlarini, samimiy fikrlarini bildirdi.

Shuningdek, mакtabning yosh ijodkorlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar barchaga ko'tarinki kayfiyat ularshdi.









